

NARKOTIK MODDALAR NOQONUNYI AYLANISHINING OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISHDA PROFAYLING USULLARI



Payziyev Abbas Muxammadovich

yuridik fanlar bo'yicha (PhD) falsafa doktori, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti



Mahmudov Muhammadqodir G'anisher o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Narkotiklarni nazorat qilish milliy markazi katta inspektori

Annotatsiya. Ushbu maqolada narkotik moddalarning qonunga xilof muomalasining oldini olish, qarshi kurashishda profayling texnikasidan foydalanish, narkotik moddalarga qarshi kurashishda an'anaviy huquq-tartibot choralari bilan bir qatorda, zamonaviy tahlil usullarini qo'llash, shuningdek, narkotik profayling tushunchasi, uning turlari, amaliyotdagi samaradorligi, huquqiy va axloqiy jihatlari, shuningdek, uni joriy qilishdagi muvaffaqiyatlar va muammolar atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: profayling, narkotik, ijtimoiy parokandalik, reaksiya, sun'iy intellekt, kimyoviy tahlil, interpol, psixologiya, yurisprudensiya.

Аннотация. В статье представлен комплексный анализ применения методов профайлинга в профилактике и борьбе с незаконным оборотом наркотиков, применение современных аналитических методов в дополнение к традиционным правоохранительным мерам в борьбе с наркотиками, а также понятие наркопрофилирования, его виды, эффективность на практике, правовые и этические аспекты, а также успехи и проблемы при его внедрении.

Ключевые слова: профилирование, наркотики, общественные беспорядки, реакция, искусственный интеллект, химический анализ, Интерпол, психология, юриспруденция.

Abstract. This article provides a comprehensive analysis of the use of profiling techniques in the prevention and fight against illegal drug trafficking, the use of modern analytical methods in addition to traditional law enforcement measures in the fight against drugs, as well as the concept of drug profiling, its types, effectiveness in practice, legal and ethical aspects, as well as successes and problems in its implementation.

Keywords: profiling, drugs, social unrest, reaction, artificial intelligence, chemical analysis, Interpol, psychology, jurisprudence.



Bugungi kunda dunyodagi eng global muammolardan biri – bu narkotik moddalarning tarqalishi va ular bilan bog'liq jinoyatchilikning ortishi hisoblanadi. Narkotik savdosi faqatgina shaxsiy sog'liqqa tahdid solmasdan, balki iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy parokandalik, siyosiy barqarorlikning izdan chiqishi va xavfsizlik muammolarini keltirib chiqaradi. Ayniqsa, chegaralar orqali narkotik moddalarni olib o'tish, ularni tarqatish va noqonuniy pul aylanmasi jinoiy guruhlar uchun katta daromad manbaga aylandi. Shu bois davlatlar narkotik moddalarga qarshi kurashishda an'anaviy huquq-tartibot choralarini bilan bir qatorda, zamonaviy tahlil usullarini ham joriy etmoqda.

Shunday usullardan biri narkotik profayling usulidir. Profayling (ingl. "profile" – "profil") – shaxsni tashqi ko'rinishi, noverbal va verbal xulqidagi eng ko'p axborot beruvchi maxsus belgilari, xususiyatlarini tahlil qilish asosida inson xulqini baholash va prognozlashga qaratilgan psixologik usul va metodikalar majmuini bildiruvchi tushuncha.

Bu jarayonda narkokurerlar, tarqatuvchilar, xullas, narkotik savdosi bilan shug'ullanuvchilariga oid ma'lumotlar tahlil qilinadi, shubhali harakatlarga e'tibor qaratiladi hamda ehtimoliy xavflar saralanadi.

Dunyoda giyohvandlar soni ortib bormoqda, BMTning ma'lumotiga ko'ra, oxirgi o'n yil ichida ularning soni 296 million kishiga ko'paygan.

Respublikamizda oxirgi yillarda giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi bilan bog'liq 8280 ta jinoyat aniqlangan bo'lsa, ushbu jinoyatlarni sodir etganlarning 6147 nafari jinoiy va 1407 nafari ma'muriy javobgarlikka tortilgan. Javobgarlikka tortilganlarning 58 nafari chet el fuqarolari bo'lib, shundan 49 nafari MDH davlatlari fuqarolaridir.

Tezkor tadbirlar natijasida 2 tn 31 kg 886 gr giyohvandlik vositalar va psixotrop moddalar noqonuniy muomaladan olingan. Shundan, 2 tn 25 kg 13 gr giyohvandlik vositalar va 6 kg 127 gr psixotrop moddalar.

Musodara qilingan giyohvandlik vositalarning 866 kg 253 gr kontrabanda bo'lsa, 19 kg 687 gr o'z

xohishi bilan topshirilgan va 31 kg 580 gr egasiz bo'lgan. Shuningdek, 10486 m.kv maydonda tarkibida giyohvandlik vositalari mavjud o'simliklar yo'q qilingan.

"Telegram" ijtimoiy tarmog'ida giyohvandlik vositalarning noqonuniy savdosini amalga oshiruvchi 1499 ta akkaunt aniqlanib, shundan 1311 tasi bloklandi. Qolgan 188 tasini bloklash bo'yicha ijtimoiy tarmoq moderatorlariga xabar berilgan, shuningdek akkauntlarni reklama qiluvchi 2962 ta "narkograffiti" o'chirilgan.

Yuqoridagi statistik ma'lumotlardan ham ma'lumki, hozirgi kunda mamlakatimizda narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog'liq qator muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan:

– chegaralarda nazoratning yetarli darajada emasligi – tranzit yo'llar orqali moddalarning yashirin olib o'tilishi davom etayotganligi;

– kiberjinoyatchilik orqali narkotik savdosining kengayishi – darknet va ijtimoiy tarmoqlarda yashirin savdo tizimlari faol ishlayotganligi;

– huquqni muhofaza qiluvchi organlar o'rtasida o'zaro ma'lumot almashinuvi borasidagi muammolarning saqlanib qolayotganligi – tezkor ma'lumot almashinuvi borasida idoralararo muvofiq-lashtirishda kechikishlar yuz berayotganligi;

– yangi paydo bo'lgan sintetik moddalarni aniqlash tizimi sustligi – laboratoriyalar texnik jihatdan to'liq jihozlanmaganligi sababli yangi turdagi sintetik va shunga o'xshash (tarkibida narkotik modda bo'lgan modda va vositalar) moddalarning aniqlashdagi muammolarning saqlanib qolayotganligi shular jumlasidandir.

Ushbu muammolarni hal qilish uchun mamlakatimizda narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda zamonaviy yechimlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– chegara xavfsizligini kuchaytirish – narkotik moddalar yashirin tashilishining oldini olish maqsadida chegara postlarida mobil skanerlar, portativ tezkor test uskunalari joriy etish, xavfli hududlarni aniqlash uchun "risk-kartografiya" tizimini ishlab chiqish zarur;

– kibernetika va onlayn savdoga qarshi kurashish – ijtimoiy tarmoqlar va darknet orqali tarqalayotgan narkotik moddalarni aniqlash uchun maxsus kiber-intel guruhlarini tuzish, Telegram,

Instagram va boshqa platformalar bilan hamkorlikda tezkor bloklash tizimini yo'lga qo'yish, shuningdek kriptovalyuta orqali moliyaviy operatsiyalarni monitoring qilish muhim ahamiyat kasb etadi;

– idoralararo hamkorlikni kuchaytirish – narkotiklarga qarshi kurash samaradorlikni oshirish uchun "Fusion Center", ya'ni ma'lumotlarni birlashtiruvchi markaz tashkil etish. Bu markaz orqali IIV, DBQ, DXX, prokuratura va boshqa idoralar o'rtasida real-time ma'lumot almashish tizimi yo'lga qo'yiladi;

– sintetik moddalarni aniqlash laboratoriyalarini modernizatsiya qilish – yangi turdagi psixoaktiv moddalarni tez va to'g'ri aniqlash uchun kriminalistik va tibbiy laboratoriyalarni zamonaviy GC-MS va LC-MS uskunalar bilan jihozlash, mahalliy mutaxassislar malakasini oshirish hamda xalqaro laboratoriyalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim;

– jamoatchilik profilaktikasi va ta'lim – yoshlar orasida narkotik moddalarning zarari haqida maqsadli profilaktik dasturlar, maktab va mahalla darajasidagi tushuntirish ishlarini kuchaytirish, shuningdek rehabilitatsiya markazlarini ko'paytirish aholining ongli immunitetini shakllantiradi.

Yuqorida sanab o'tilgan narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish, ushbu illatga qarshi kurashish uchun yana bir muhim va samarali usul – narkotik profaylingi hisoblanadi. Narkotik moddalar noqonuniy aylanishining oldini olish va unga qarshi kurashish profaylingida samarali va amaliyotda sinovdan o'tgan kurash usullarini sanab o'tadigan bo'lsak, ular texnik, amaliy va huquqiy yo'nalishlarga bo'lingan. Masalan:

1. Ximiyaviy va fizik profayling vositalari narkotik moddalarning tarkibiy qismlarini tahlil qilishga asoslanadi, tahlil natijasida narkotik moddaning manbasi, ishlab chiqarilgan mintaqasi va sintetik usulini aniqlash mumkin bo'ladi.

2. Harakatlar profayling vositalari shaxsning tashqi harakatlari, psixologik holati va jismoniy reaksiyalarini tahlil qiladi va asabiylik, ko'zlarini olib qochish, terlash, ovozda beqarorlik, qo'ldagi titrashlar, ortiqcha harakatlar yoki jimlik, yuk ko'pligi, yo'nalishning asosli emasligi aniqlaydi.

3. Hujjat va sayohat ma'lumotlari tahlili — safar yo'nalishlari, sayohat maqsadi noma'lum, qayta-qayta o'sha yo'nalishda sayohat qilish, qochish ehtimoli bor yo'lovchilarni oldindan aniqlaydi.

4. Sun'iy intellekt – ma'lumotlarni tahlil qilib, xavfni avtomat tarzda aniqlaydi, videokameralar va skanerlar orqali shaxsning harakatlari – asabiylik, shubhali harakat, yukni ehtiyotkorlik bilan olib yurish holatlarini tahlil qiladi, yuk va transport vositalarida narkotiklar bor-yo'qligini AI orqali taxmin qiladi, rentgen tasvirlari orqali giyohvandni tanib oladi, termal kameralar orqali noodatiy issiqlikni aniqlaydi. Masalan: AQSH va Xitoyda aeroportlarda kompyuter ko'rish (computer vision) yordamida narkotik tashuvchilar 70–80% holatda avtomat aniqlangan. SI bilan boshqariladigan skanerlar (masalan, portativ narko-detektorlar) kimyoviy moddalarni tezkor aniqlab, millionlab ma'lumotlar orasida narkotiklar bilan bog'liq xatti-harakatlar, xatlar, moliyaviy operatsiyalar kabi shablonlarni avtomat tanib oladi.

Shuningdek, sun'iy intellekt narkotiklarga qarshi kurashda katta samara berishi mumkin. U xavfni oldindan aniqlash, tarqalishni kuzatish, kimyoviy tahlilni avtomatlashtirish va shaxslarni shubhasiz kuzatish orqali huquq-tartibot organlariga kuchli yordamchi bo'ladi. Ammo bu texnologiyalarni faqat axloq, qonun va inson huquqlariga mos ravishda joriy qilish kerak. Inson huquqlari eng ustuvor qadriyat sifatida saqlanishi lozim.

5. Video kuzatuv va identifikatsiya texnologiyalari – yo'lovchilarning yuz ifodalarini, harakat yo'nalishlarini kuzatib, biometrik ma'lumotlari asosida tahlil qiladi, avtomatik tarzda yuz va harakat tahlili qilish, real vaqtda shubhali harakatni kuzatish va chora ko'rish imkoniyatiga ega.

6. Qidiruv va kuzatuv vositalari – narkotik moddalarni aniqlash uchun maxsus tayyorlangan itlardan foydalanish, portativ narkotik skanerlardan foydalanish (narko-detektorlar), rentgen va issiqlik skanerlari (ayniqsa, yuk va chemodanlarda), fizik tashuv vositalarida narkotik moddani aniqlashda qo'llaniladi.

6. Huquqiy va xalqaro hamkorlik vositalari — Interpol kabi tashkilotlar bilan ma'lumot almashuvini yo'lga qo'yish, xalqaro qonunlar asosida profayling protokollari (shaffof va diskriminat-

siyasiz) tayyorlash, qo'shma tergov guruhlari, transmilliy qochoqlarga qarshi samarali harakatda foydalaniladi.

7. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish – profayling bo'yicha maxsus tayyorgarlik kurslari (psixologiya, yurisprudensiya), huquq-tartibot organlari uchun treninglar, axloqiy (etika) va inson huquqlari sohasida ma'lumot berish, narkojinoyatlarga qarshi kurashuvchi huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining bilimni xalqaro standartlarga mos ravishda oshirishni tizimli yo'lga qo'yish uchun juda muhim hisoblanadi.

Narkotik moddalar noqonuniy aylanishining oldini olish va unga qarshi kurashish profaylingida samarali vositalar bir-biriga bog'liq va kompleks ravishda ishlatilishi lozim. Faqatgina texnik vositalar emas, balki inson fe'l-atvori, ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyati va qonuniy asoslar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vositalarni inson huquqlariga zid bo'lmagan holda, shaffof va ilmiy yondashuv bilan qo'llash narkotiklar tarqalishiga qarshi samarali kurash olib borishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, narkojinoyatchilik jamiyat uchun juda katta tahdid tug'diradigan, murakkab va tizimli jinoyat turlaridan biri hisoblanadi. Uning tarqalishi nafaqat inson salomatligi va ma'naviyatiga, balki davlat xavfsizligi va iqtisodiy barqarorlikka ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, unga qarshi kurashishda zamonaviy, tizimli va ilmiy yondashuvlarni joriy etish dolzarb masalaga aylangan.

Shu nuqtai nazardan olganda, profayling – narkotik bilan bog'liq jinoyatlarni barvaqt aniqlash, tahlil qilish va oldini olishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. U shaxsning psixologik, ijtimoiy, biometrik va povedensial (xatti-harakat) xususiyatlarini tahlil qilish orqali jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori bo'lgan shaxslar to'g'risida ma'lumot to'plashga imkon beradi. Ayniqsa, narkotrafik tashkil qiluvchi guruhlarining harakatlari va ularning ichki tuzilmasini fosh etishda psixologik va ijtimoiy profayling usullari yuqori samara bermoqda.


Shu bilan birga, profaylingning joriy qilinishi huquqiy-etik cheklovlar, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, texnologiya imkoniyatlari va malakali kadrlar yetishmasligi kabi qator muammolar bilan

to'qnash keladi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun zamonaviy biometrik tizimlarni joriy etish, mutaxassislar tayyorlashni yo'lga qo'yish va qonunchilik bazasini takomillashtirish zarur.

Narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi bugungi kunda nafaqat O'zbekiston, balki butun jahon hamjamiyati oldida turgan eng xavfli ijtimoiy-huquqiy muammolardan biridir. Uning salbiy ta'siri nafaqat inson sog'lig'i va jamiyat ma'naviyatiga, balki davlat xavfsizligi, iqtisodiy barqarorlik va demografik rivojlanishga ham bevosita tahdid solmoqda. Ayniqsa, Internet tarmoqlari orqali tarqalish, chegaralardan noqonuniy olib kirish va yoshlar orasida giyohvandlik moddalardan foydalanish holatlarining ko'payishi bu muammoni yanada kattalashtirmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ushbu xavfning oldini olish borasida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, narkotik tarqatuvchilarga qarshi kurashish bo'yicha vakolatli idoralararo komissiyalar tashkil etilmoqda, profilaktika ishlari kengaytirilmoqda, narkologik yordam tizimi takomillashtirilmoqda. Shu bilan birga, muammolar hali ham mavjud bo'lib, ayniqsa chegaralarda nazoratning yetarli emasligi, zamonaviy elektron kuzatuv tizimlarining yo'qligi, aholi o'rtasida xabardorlik darajasining pastligi kabi kamchiliklar tizimli yondashuvni talab etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashishda davlat, jamiyat va har bir fuqaroning mas'uliyati yuqori bo'lishi shart. Faqatgina huquqiy, profilaktik va texnologik choralarni uyg'unlashtirgan holdagina bu illatning ildizini kesish mumkin. Bu esa O'zbekistonda sog'lom, ma'rifatli va xavfsiz jamiyatni shakllantirishning muhim kafolatlaridan biridir.



Foydalanilgan manbalar

1. BMTning Giyohvandlik vositalari to'g'risidagi konvensiyasi. 2000-yil 15-noyabr, Nyu-York. <https://lex.uz/docs/-1304566>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi qonuni. <https://lexuz>.
3. "O'zbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish bo'yicha 2024 – 2028-yillarga mo'ljallangan Milliy strategiya". 2024-yil 6-may, PF-73-son. <https://lexuz>.
4. Narkotik moddalarni nazorat qilish milliy axborot-tahlil markazining 2023-2024-yillar uchun Informatsion byulleteni. <https://www.unodc.org/centralasia>.
5. O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/ru/docs/-2655293>.
6. Axmedov A.B. Jinoyatchilikka qarshi kurashda psixologik profaylingning o'rni. – Toshkent: Yuridik fanlar jurnali. – №2. – 2022. – B. 45–52.
7. Ivanov P.N. Biometric Profiling in Criminal Investigations. – Moscow: Russian Academy of Internal Affairs, 2020. – 185 p.
8. Norqobilov F. Narkojinoyatlar: kriminologik tahlil va ularning profilaktikasi. – Toshkent: IIV Akademiyasi nashriyoti, 2021. – 210 b.
9. Turabekov S. Use of Psychological Profiling in Detecting Drug Crimes in Uzbekistan // Journal of Criminology and Legal Studies, Vol. 5(1), 2023. – P. 31–38.

